

## INKLYUZIV TA'LIMNI QO'LLAB-QUVVATLASH YO'LLARI

**M.A.Mamanabiyeva**

*Andijon viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga  
o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *maqolada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashda quyidagi masalalarni hal etish va bu borada olib borilayotgan islohotlar haqida fikr yuritilgan.*

**Tayanch so'z:** *iboralar BMT, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar, meynstriming, integratsiya, inklyuziv ta'lim.*

### KIRISH

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo'nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Butun dunyoda qariyb 1 milliardga yaqin nogironligi bo'lgan shaxslar borligi inobatga olinsa, bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus hisoblanadi.

Shu boisdan mamlakatimizda inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim-tarbiya (shu jumladan, inklyuziv ta'lim-tarbiya) olishiga xizmat qiladigan moslashuv muhitini yaratish bo'yicha alohida vazifalar qayd etib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 apreldagi PQ-4860 sonli qarori [2] qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mazkur hujjatlarda jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan maxsus yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, ularning sog'lom bolalar qatoridan o'rin olib o'z qobiliyati, imkoniyatlarini ko'rsata olishiga, ma'naviy kamol topishiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Asosiy qism Inklyuziv ta'limga jalb etish global muammolardan biri xisoblanadi. Inklyuziv ta'limning asosiy kismi–bolalarga bilim olish uchun dustona munosabat va ukishga imkon beruvchi muxitni yaratishdir. Maxsus extiyojli bolalarning xayotga ilk yoshdan ya'ni 6 yoshgacha e'tibor berilsa, ancha yukori samaralarga erishish mumkin. Imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim–tarbiyaga bo'lgan extiyojlarni kondirishga mos bo'lgan siyosatni ishlab chikish inklyuziv ta'limni qo'llab–quvvatlashning asosidir. Inklyuziv ta'lim rasmiy ta'lim tushunchasidan ancha kengroq bo'lib, inklyuziv so'zi lotin tilidan olinganda “jalb qilish”, ingliz tilidan olinganda “ uygunlashish” degan ma'noni bildiradi. Shuningdek inklyuziv ta'lim hamma uchun ta'lim jarayonlarini ochiqligi ma'nosini bildiradi. Bu ta'limda ko'proq o'qishda, o'rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv ta'limda o'qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo o'qituvchi inklyuziv tafakkurga ega bo'lishi va ta'lim sifati mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi shart. Inklyuziv ta'lim berish o'qituvchilar ishi sifatining asosiy mezonlari – o'qituvchi o'quvchilarning turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi zarur. Yana bir sifat – hamkorlikni yo'lga qo'yish. Chunki o'qituvchilar uchun hamkorlik va o'zaro fikr almashish muhimdir.

Rivojlangan mamlakatlarda XX asrning 70 yillaridan boshlab inklyuziv ta'limni rivojlantirishga doir turli xil me'yoriy huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayoni boshlangan. Bu borada nogironlarni jamiyatga jalb qilish uchun AQSH va Yevropa mamlakatlarida asosan 3 ta yondashuv keng tarqalgan. Meynstriming, integratsiya hamda inklyuziv ta'lim. Meynstrimingga ko'ra, nogironligi bo'lgan o'quvchilar nogironligi bo'lmagan o'quvchilar bilan turli xil tadbirlarda, bayramlarda uchrashishadi. Shu asosida ular bir birini xususiyatlarini, talablarini bilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Integratsion yondashuvga ko'ra, nogironligi bo'lgan bolalar umumta'lim maktablariga jalb qilinadi. Lekin, maktablardagi ta'lim tizimi va sharoitlar o'zgartirilmaydi. Inklyuziv yondashuvga ko'ra, nafaqat nogironligi bor bolalar jalb qilinadi, balki ularni jalb qiladigan maktablar ham ularning talablariga qarab moslashtiriladi.

Tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqotlariga ko'ra, inklyuziv ta'limni rivojlanishi ta'lim sohasida iqtisodiy samaraga erishishda ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish kerakligi borasida konsensus mavjud. Davlat va munitsipal maktablari ularga moliyaviy yordam berishadi

Tahlil va natijalar Bugungi kunda respublika bo'yicha jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun jami 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda 21,2 ming nafar, 21 ta sanatoriy turidagi maktab-internatlarda 6,1 ming nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladi. Shuningdek, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan 13,3 ming nafar o'quvchilar uyda yakka tartibda o'qitilmoqda.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni sog'lom bolalar qatorida umumta'lim maktablarida o'qitish amaliyotini rivojlantirish maqsadida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning umumta'lim maktablariga integratsiyalashuvi (uyg'unlashtirgan holda ta'lim-tarbiya berish) tajribasi qo'llanilishi

natijasida so'ngi yillarda 500 nafarga yaqin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablariga qaytarildi.

Bundan tashqari, "Zamonaviy maktab"larni qurishda ushbu maktablarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ular uchun maxsus infratuzilma bo'lishi va jihozlanishini ta'minlash maqsadida inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha "Zamonaviy maktab"ga qo'yiladigan me'yoriy talablar loyihasi ishlab chiqildi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim bugun eng insonparvar ta'lim sifatida butun dunyoda shu jumladan yurtimizda keng tadbiiq etilmoqda. Mamlakat bo'ylab inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan davlat islohotlari o'z samarasini berishi uchun avvalo ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z faoliyatini tizimli baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalararo guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo'llashi, muammolarni birgalikda hal qilishi, bundan tashqari keng qamrovli maktab hamkorligini yo'lga qo'yishi kerak. Bu ta'lim bir tomonlama bo'lmasligi kerak. Shuningdek imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rganishni rag'batlantirishda oila ishtiroki alohida ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham muhim. Ta'kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгашининг 46-сессиясидаги нутқи. 21.02.2021 <https://president.uz/uz/lists/view/4179>

2. Алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларга таълим-тарбия бериш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 апрелдаги ПҚ-4860 сонли қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 14.10.2020 й., 07/20/4860/1383-сон

3. Табольская О.А., Яковлева И.В. Тьюторство в условиях развития инклюзивного образования. – Москва–Берлин, 2019

4. Нишанбаева Э.З., Абдухалилов А.А. Инклюзив таълимни ривожланишида ижтимоий шерикликнинг тутган ўрни [https://www.researchgate.net/publication/347901748\\_](https://www.researchgate.net/publication/347901748_)